

MILLIY TARBIYA VA AXLOQIY TARBIYANING UZVIYLIGI**Abdusalomova Sevinch Murod qizi****SamDU Kattaqurg 'on filiali talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10695452>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodning ongida milliy tarbiya va axloqiy tarbiyaning uzviyligi asosida ta'lim-tarbiya berish, hamda vijdon tarbiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, milliy tarbiya, milliylik, axloq, axloqiy tarbiya, vijdon.

Hozirgi kunda mamlakatimiz rivojida asosiy e'tibor ta'lim tarbiya masalasiga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda" g'oyasining ko'tarilishi "Yangi O'zbekiston 3-renessans" deya belgilangan ulug' g'oyaning ilgari surilishi va davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasi ta'lim tarbiya ustuvor yo'nalishi deb belgilanishi hozirgi kunda bu jarayonlarga qaratilgan e'tiborning yorqin namunasidir. Mamlakatimizda bu ikki soha bir biriga uzviy holda amalga oshirilmoqda. Chunki ta'limsiz tarbiya, tarbiyasiz ta'lim bir butun jarayon bo'la olmaydi. Ta'lim insonning aqliy qobiliyatini shakllantirsa, tarbiya esa uning ichki va tashqi dunyosini go'zal qiladi. SHuning uchun har bir xalqning ma'naviy qiyofasini belgilovchi vosita uning tarbiyasidir. Tarbiya insonning insoniyligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'lolmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayli bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Bu xususiyat tufayli ko'rinayotgan masala shuki, tarbiya ham tarixga, ham kelajakka ta'sirini ko'rsatadi. Chunonchi Abdulla Avloniy ta'lim tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqini ruhiyati, turmush tarsi milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanini aytib o'tadi. U tarbiya haqidagi fikrlarini quyidagicha bayon etadi: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot-yo najot-yo halokat-yo saodat-yo falokat masalasidir deb ta'kidlab o'tgan. Chunki tarbiya jarayonida qilingan xatolar e'tiborsiz qaralganda turli noxush vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin va bu noxush vaziyatlarning natijasi ham ayon. Bu holatlarda ko'pincha "bir gap bo'lar " degan metod qo'llanilishi tarbiyaviy uzviylikning eng zaif tomoni bo'lishi mumkin. Bu qilingan xato bolaning tashqi omillarni tez qabul qilishi va o'sha jaroyonga nisbatan bo'shliq paydo bo'ladi. Bu bo'shliq ertangi kunda bolani kelajagini butunlay yo'q qilishi mumkin. Bu darajani o'zida shakllantirgan bola jamiyat hayotida ham turli ko'ngilsiz vaziyatlarni keltirib chiqadi. Bunday vaziyatlarni oldini olishda har bir bolaga tarbiya berishda umumiylikni singdirish lozim. Xo'sh tarbiya o'zi nima? Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, ma'naviy sifatlarni shakllashtirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Tarbiya ning asosiy vazifasi bir jamiyatga xos fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Chunki bu jarayon har bir xalqning o'zligidan kelib chiqib beriladi. Shu sababli ham har bir jamiyat a'zosi o'z jamiyatidan kelib chiqib o'sha jamiyat talablariga mos javob beradi. Bu holatda shaxsiy shu bilan birga umumiy muammolar yuzaga kelmaydi. Shuning uchun shaxsga berilayotgan tarbiya jamiyat hayotining asosi bo'lgan milliylik bilan birga singdirilishi lozim.

Milliy so'zi arabchadan olingan bo'lib, "o'zak" degan ma'noni bildiradi. Milliylik bu bir jamiyatning o'ziga xos uyg'unligi, ya'ni o'z urf-odati, dunyoqarashi, jamiyatda rivojlangan odatlar va qadriyatlar asosidir. Bu xossalarning shakllantirishda har bir shaxsga avvalo ustun ya'ni mu'asir tarbiyani shakllantirish lozim. Chunki bu ruhda tarbiyalangan kishilar jamiyatning ertasi porloq kelajagidir. Tarixga nazar tashlasak ham bu haqida qator misollar keltirishimiz ham

mumkin. Xususan Sharq falsafasining asosini tarbiya mavzulari yoritib beradi. Masalan Jaloliddin Rumi bolaning yoshligidan tarbiyalamoq lozim degan fikrni ilgari surgan. Bola tug'ilgan vaqtda fitratda toza holda tug'iladi. Ya'ni uning misoli oppoq qog'ozdek bo'ladi. O'sah oq qog'ozga chiziladigan surat mualliflari bolaning ota-onasidir. Muallif qanchalik mukammal bo'lsa, chizilgan surat ham shunchalik ko'ngilga xush yoquvchi holda tayyorlanadi. Lekin ba'zi hollarda hamma suratlar ham dilga xush yoqmasa uni xira qiladi. Bunday holat bo'lmasligi uchun oilada farzanddan oldin ota-onani to'g'ri shakllantirish lozim. Ota-ona tarbiyaning bosh ildizi bo'lsa bolaga berilayotgan axloqiy tarbiya asosiy bndlari estetik tarbiya, yaprog'I, undan kutilgan natija esa mevasidir. Shuning uchun bolaga axloqiy tarbiyaning eng ko'p salmog'I oilada singdiriladi. Bunday holatda farzandga tarbiya berishda rag'batlantirish nisbatan jazolash usulidan foydalanish kerak. Lekin bu holatda tarozi pallasini birxilda tutmoqlik lozim. Chunki rag'batlantirishning ko'pligi bolani tanti qilsa, jazolash metodikasini ko'p qo'llanishi uni ruhiy sindirishi mumkin. Bunday noxush vaziyatlar bo'lmasligi uchun tarbiya berishda tarbiyaviy reja yaratish lozim. Chunki reja asosida qurilgan uy doim chiroyli va mustahkam bo'ladi. Chunki bu uyning tayanch qismi axloqiy tarbiyadir. Axloq bu odob so'zining sinonimidir. Bu tarbiyaning shakllanishi bilan o'zligimiz ham shakllanadi. Birgina salomlashish, dasturxon oldida bolaning o'zini qay darajada tutishi o'zining axloqiy estetik shu bilan birga milliy tarbiyasi namunasidir. O'zbek xalqida milliy tarbiya va axloqiy tarbiya bir biridan uzilmas zanjirdir. Bu ikki xossani bir biridan ayirib bir butun shakl yaratish juda qiyin. Chunki o'zbek xalqi o'zining milliyligi, axloqi tufayli yer yuziga tanilgan. Bunday tarbiyaning asosi bizda o'z vatanini sevis, kattaga hurmat kichikka izzatda bo'lish diniy – dunyoviy bag'rikenglik, bolajonligimiz yorqin misol bo'ladi. Biz o'zimizda axloqiy tarbiyani shakllantirar ekanmiz, milliyligimizni, milliyligimizni shakllantirar ekanmiz, o'zligimizni, o'zligimizni shakllantirar ekanmiz vijdonimizni doim pok tutamiz. Nega milliy tarbiya va axloqiy tarbiya shakllanishi vijdon pokligiga olib keladi? chunki vijdon pokligi ham axloqiy tarbiyaning ma'lum tamoyilidir. Chunki vijdon shaxsning o'zini axloqiy nazorat qilish qobiliyatining ifodasidir. Shuning uchun tarbiyada bu jihatga ham alohida etibor berish lozim. Bu jihatni bolada shakllantirishda yoshligidan xato qilganda unga o'z aybini tushunib yetishi uchun vaziyat va ko'nikma shakllantirib boorish lozim. Bola yoshligidan o'zi qilgan ayb uchun qiynalish, ertangi kunda jamiyat va odamlarga nisbatan nafrat, baxillik, yovuzlik kabi xislatlar shakllanishining oldini oladi. Xo'sh bu holatlar axloqiy tarbiyaning to'ldiruvchi qismi bo'lsa asosini qanday xislatlar tashkil etishi qiziq. Masalan axloqiy tarbiyaning asosini milliylik bilan sug'orilgan axloqiy fazilatlar, axloqiy qarashlar tashkil etadi. Chunki bu xususiyatlar insonni yaxshilikka chorlaydigan yomonlikdan qaytaradigan kuchdir. Bu kabi jihatlar sharq falsafasida axloqiy qomuslar deb yuritiladi. Bu kabi jihatlarni o'z asarlarida Imom al Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Sa'diy Sheroziy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi allomalar o'zining ilmiy va ijodiy faoliyatining yetakchi mavzusi deb bilganlar. Axloqiy tarbiyada adolatparvarli, inson shaxsiga nisbatan hurmat, sahiylik, insonparvarlik, yakdillik kabi xislatlar ham asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun axloqiy tarbiya to'g'ri va ixlos bilan berilsa, u tarixda bizdan oldin yashab o'tgan ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimizga yordam beruvchi vositadir.

References:

1. "O'zbekiston oliy ta'lim" jurnali, ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal. Toshkent nashriyoti

2023 2-son. 35-bet

2. “Umumiy pedagogika” Ibragimov, Quranov, Ilmiy ommabop
3. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Xodjayev. “Sano-standart” nashriyoti 2017-yil. 56-bet